



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/2 (11)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмуратов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурманова** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Умирзаков Bakhodir Khamidovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Azamat Khamidovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli** – доктор психологических наук.

**Turakulov Ulugbek Holbutayevich** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanova** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

### МЕЖДУНАРОДНАЯ

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Иосифовна,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

### INTERNATIONAL EDITORIAL

### BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*SOTSILOGIYA*

<b>Saydivalieva X.X., Kadirova T.J.</b> Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari .....	4
<b>Myсаева М.И.</b> Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
<b>Inoyatova S.J.</b> Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari .....	17
<b>Ilxamova Z.</b> O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroti .....	24
<b>Zokirov S., Xusanova S.</b> O'zbekistonda ta'lif davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Hojiyev R.B.</b> Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
<b>Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I.</b> Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri .....	40
<b>Abdibositov A.</b> Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar .....	46
<b>Muhittdinova D.</b> Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish .....	51

*PSIXOLOGIYA*

<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	56
<b>Xusanov S.</b> "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'r ganilishi .....	63
<b>Аскарова Г., Каримова Н.</b> Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи .....	68
<b>Nomozova R.O.</b> Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari .....	75
<b>Imonova M.B.</b> O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
<b>G'ulomqodirov E.A.</b> Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini .....	85

*PEDAGOGIKA*

<b>Qurbanova B.N.</b> Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish .....	91
---	----

*DEMOGRAFIYA*

<b>Dusnayev Sh.E.</b> O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili .....	96
--	----

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

<b>Rabiiev B.B.</b> Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



**Rabiyev Bobomurod Bahadirovich,**

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*

[rabiev2022@adu.uz](mailto:rabiev2022@adu.uz)

# **AYOLLAR UY XIZMATI MIGRATSİYASINI TARTIBGA SOLISH BO‘YICHA FILIPPIN TAJRIBASI**

**Annotasiya.** Hozirgi kunda dunyo aholisining 70 foizdan ortig‘i Osiyo mintaqasi hissasiga to‘g‘ri keladi va bu mintaqada turli millat, elat madaniyat vakillari istiqomat qiladi. Hududlardagi davlatlar iqtisodiyoti geografik joylashuviga qarab farqlanadi, ba’zi davlatlar ishchi kuchi eksport qilsa, ba’zi davlatlar ishchi kuchini import qiladi. Ya’ni rivojlanayotgan va rivojlangan yirik mamlakatlarga mehnat migranti sifatida borishadi. Ushbu maqola ayol mehnat migrantlari migratsiyasi bo‘yicha Filippin tajribasi tadqiqiga bag‘ishlangan.

**Tayanch so‘zlar:** xalqaro mirgratsiya, ayollar mehnat faoliyati turlari, ayollar uy xizmati migratsiyasi, xizmat ko‘rsatish, Osiyo mintaqasi, Filippin davlati siyosati, ijtimoiy yordam.

**Аннотация.** Сегодня более 70 процентов населения планеты проживает в азиатском континенте, и в этом регионе проживают представители разных национальностей и культур. Экономика стран регионов различается в зависимости от их географического положения: одни страны экспортят рабочую силу, а другие импортируют. То есть они едут в развивающиеся и развитые страны как трудовые мигранты. В данной статье рассматривается филиппинский опыт трудовых мигрантов-женщин.

**Ключевые слова:** международная миграция, виды женской трудовой деятельности, женская домашняя служебная миграция, оказание услуг, Азиатский регион, политика филиппинского государства, социальная помощь.

**Annotation.** Today, more than 70 percent of the world’s population lives in the Asian continent, and this region is home to representatives of different nationalities and cultures. The economies of countries in the regions vary depending on their geographical location: some countries export labor, while others import. That is, they go to developing and developed countries as labor migrants. This article examines the Phillipine experience of female migrant workers.

**Keywords:** International migration, types of female labor activity, female domestic service migration, provision of services, Asian region, policy of the Philippine state, social assistance.

**K**irish. Yer yuzida globallashuv jarayonlari jadal rivojlanmoqda, mamlakatlar iqtisodiyotini taraqqiy ettirish maqsadida turli xil siyosat yuritmoqdalar, natijada davlatlararo hamkorlik rivojlanib, insonlar ishchi sifatida ma‘lum bir mintaqalarga muhojir sifatida ishslash uchun yuborilmoqda.

2024-yil 26-iyun Vashingtonda bo‘lib o‘tgan Jahon bankining so‘nggi Migratsiya hisobotiga ko‘ra, 2021–2022-yillardagi kuchli o‘sish davridan so‘ng 2023-yilda past va o‘rta daromadli mamlakatlarga rasmiy ravishda qayd etilgan pul o‘tkazmalari oqimi pasaygan va taxminan, 656 milliard dollarga yetgan. Shuningdek, pul o‘tkazmalari haqida

qisqacha ma'lumot e'lon qilindi<sup>1</sup>. Unga ko'ra, migrantlardan eng ko'p pul o'tkazmalarini qabul qilgan mamlakatlar kuchli 10 taligiga Hindiston, Xitoy va Meksika kiritilgan. To'rtinchchi o'rinni esa Filippin davlati egallagan holda 2022-yilda xorijdagi migrantlardan 38 mlrd dollar qabul qilgan.

Filippin bu Janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan 7000 mingdan ortiq orollarga ega mamlakat bo'lib, uning aholisi 117 milliondan ortiq (2023), yer maydoni esa 300 000 km Filippin 51 milliondan ziyod 15 yoshdan oshgan mehnatga yaroqli aholiga (2024) hamda yirik ishchilariga ega davlat.

Hozirda mintaqada aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha yirik islohotlar olib borilmoqda. Xalqaro migratsiyani takomillashtirish, ishchilarining kasb va malakalarini oshirish, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilish dolzARB masalalardan hisoblanadi. Har yili 172 000 nafar filippinlik ayol o'z oilalarini moddiy qo'llab-quvvatlash va yaxshi daromad olish maqsadida chet mamlatlarga ishlash uchun o'z chiqib ketishadi. Bu kabi mirgantlaring katta qismi uy ishlari bilan shug'ullanadi.

Ularning aksariyati Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga hamda Fors ko'rfazi davlatlariga, keyinchalik Shimoliy mamlakatlarga, shu jumladan, AQSh, Kanada va Yevropaning turli davlatlariga mehnat muhojiri sifatida ishlashga borishadi. Mamlakatda 1960-yillardan boshlab davlat tomonidan tartibga solinadigan migratsiya strategiyasi paydo bo'ldi. Buning natijasida 2023-yilda Filippinning YIMning qariyb 10 foizini 3 milliondan ortiq xorijdagi filippinlik ishchilarining pul o'tkazmalarini tashkil etgan bo'lib, bu haqiqiy migratsiya sanoatini qurgan davlat sifatida ajralib turadi.

**Maqsad va uni asoslash.** Ayollar uy xizmati migratsiyasiga oid ko'plab ilmiy ishlar qilingan, jumladan, rus huquqshunos olimlaridan A.V.Averinning "Uy ishchilarini – mehnat migrantlari" deb nomalangan ilmiy ishida Rossiya hududiga migrant bo'lib ishlayotgan va huquqi buzilayotgan ayollar haqida yozadi. Unga ko'ra, ayollarning

<sup>1</sup> Juhon bankining pul o'tkazmalarini haqida qisqacha ma'lumoti // <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/06/26/remittances-slowed-in-2023-expected-to-grow-faster-in-2024>.

uy xizmati oddiy ish emas, lekin u doim ijtimoiy himoyaga muhtoj, deb aytgan<sup>2</sup>.

Xorijiy olimlardan D.K.Stasiulis va B.B.Abigailning "Kanadadagi uy xizmati xalqaro migrantlari" nomli ilmiy maqolasida berilishicha, Kanadaning uy ishchilarini migrantlari dasturi xalqaro miqyosda eng yaxshi sharoitlarni taklif qilsa-da, u dunyo miqyosidagi siyosat va xorijlik uy ishchilariga nisbatan munosabat bilan ikkita umumiyl xususiyatga ega. Bular:

1. Ish beruvchilar va ularning uy ishchilarining fuqarolik maqomlari va huquqlarining o'ziga xos nosimmetrikligi.

2. Ishchilarining ish beruvchilar uyida yashashi. Ushbu shartlar xorijlik uy ishchilarini har qanday suiste'mollikka qarshi himoyasiz qiladi. Ushbu mehnat muhojirlari va ularning ittifoqchilarini o'rtasida ta'sirchanlikni tashkillashtirish va targ'ibot ishlariga qaramay, ular bartaraf etilmadi. Kanadada va boshqa davlatlarda uy ishchilarining huquqlari poymol qilinishining oldini olish muammolari ishchi jo'naturvchi va ishchi qabul qiluvchi mamlakatlar siyosati va xalqaro konvensiyalarini o'rganish orqali o'rganiladi<sup>3</sup>.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Z.A.Kadirova "Ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Osiyo tajribasi" va D.A.Elovning "Ayollar ichki va tashqi mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari va omillari" nomli ilmiy maqolalarida ayollar migratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Migratsiya jarayonlarining iqtisodiy jihatlari keng o'rganilgan va shu sababli iqtiboslar iqtisodchi o'limlar tomonidan keltirilib, maqolada ayollar uy xizmati migratsiyasining ijtimoiy jihatlarini horijiy davlatlar miqyosida o'rganib chiqilgan.

Mavzuni o'rganishning o'ziga xos jihat shudaki, uy xizmati faoliyati jahon miqqiyosida katta daromad olib keladigan migratsiya turlaridan

<sup>2</sup> Аверин А.В. Вопросы трудового права. – № 12, 2020. Домашние работники — трудовые мигранты. УДК: 349.22 DOI:10.33920/pol-2-2012-03.

<sup>3</sup> Ishchi jo'naturvchi va ishchi qabul qiluvchi mamlakatlar siyosati va xalqaro konvensiyalarini o'rganish orqali o'rganiladi B.Bakan «Regulation and Resistance: Strategies of Migrant Domestic Workers in Canada and Internationally.» Asian and Pacific Migration Journal 6, no. 1 (March 1997): 31–57. <http://dx.doi.org/10.1177/011719689700600103>.

biri hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston uchun yosh va yangi faoliyat turlaridan biri sanaladi. Shuday ekan, ayollar uy xizmati migratsiyasi bo‘yicha yetuk tajribaga bo‘lgan Filippin va boshqa rivojlanayotgan davlatlardan andoza olish, mintaqalar bo‘yicha tahlil qilish va migratsiya sabablarini o‘rganish maqsad qilib olinib, statistik va taqqoslash metodlaridan foydalaniłgan.

### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.


Filippinlik uy ishchilarining mashhurligi ish sifatining kafolati bo‘lib, maqtovga sazovor imijni yaratish natijasidir. Filippin ayollariga xos bo‘lgan ijtimoiy-madaniy elementlarning shakllanganligi va qat’iyatli ayollik xususiyatlari bozor talabini qondirish uchun xizmat qiladi. Ular “itoatkorlik”, “kamtarlik”, “moslashuvchanlik”, “ishda jonbozlik”, “me’yordagi hazillar”, “oilaga yo‘naltirilganlik”, shuningdek, ingliz tilini bilish va yuqori darajadagi fazilatlari uchun qadrlanadilar. Filippinlik uy ishchilarini xizmati 1980-yillardan beri ushu suha rivojlanib keldi, o‘qitish tizimlari joriy eta boshlandi.

Filippin hukumati tomonidan 1974-yilda tuzilgan mehnat shartnomasi ishchi kuchini eksport qilish va davlatga kelayotgan valyuta orqali

mamlakatni rivojlantirish hamda chet davlatlardan bo‘lgan qarzini uzishga yo‘naltirilgan. Ushbu siyosatning muvaffaqiyati ma’lum bo‘lgach, ushu hodisaning davomiyligi va samaradorligini oshirish uchun haqiqiy migratsiya infratzilmasi yaratilgan<sup>4</sup>. 1980-yillardan boshlab Saudiya Arabiston va Quvayt kabi Fors ko‘rfazi mamlakatlari, shuningdek, Gonkong yoki Singapur kabi Janubi-Sharqiy Osiyo kabi iqtisodiyoti tez o‘sib borayotgan mintaqalarda bu kabi xizmatga talab paydo bo‘la boshladi. 2012-yilda dunyo bo‘ylab umumiyligi 555 ming nafar uy hamshirasi migratsiyani amalga oshirgan bo‘lib, ulardan 155 mingini filippinlik uy ishchilarini tashkil qilgan.

1-diagrammada xorijidagi uy ishlari sohalari bo‘yicha mehnat qilyotgan filippinliklar sonini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, 1.96 mln migrant bo‘lib, eng ko‘p qismi, ya’ni 81 foizi Osiyo hududlariga to‘g‘ri keladi. Xaritada berilgan foizlar yaxlit holda Osiyo mintaqasiga kiradi, bular agar hududlarga bo‘lib o‘rganilsa, eng

<sup>4</sup> 1974-yilda Filippin hukumati tomonidan xalqaro migratsiyaga oid qaror. Ang, A. P., Opiniano, J., Franco, J. E., & Sescon, J. (2015). Gender, Migration and Development in the Philippines. Research Gate. <https://www.researchgate.net/publication/>



**1-diagramma. Filippinlik uy xizmatchilarining mintaqalar bo‘yicha taqsimlanish ko‘rsatkichlari (2023-yil)**

ko‘pi Saudiya Arabiston – 23%, eng kam miqdor Yaponiya – 2,9% ga to‘g‘ri keladi<sup>5</sup>.

Filippinlik ayollarining davlatga iqtisodiy va ijtimoiy hissasi ham ijobjiydir. Shuningdek, ular oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Filippin statistika boshqarmasi tomonidan xorijdagi filippinlik ishchilarining 2022-yilgi statistik ma’lumotlari filippinlik mehnat muhojirlarining aksariyati ayollar ekanligini aniqladi: 1,96 mln nafar xorijdagi filippinlik ishchilarining 57,8 foizi ayollar, 42,2 foizi erkaklar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususiy mehnat birjalariga davlat tomonidan ruxsat berilgan bo‘lib, ular Gonkongdagi filippinlik mehnat muhojirlarining faoliyati bitimi orqali hujjatlashtirilgan. Gonkongdan qaytib kelgan uy ishchilari Filippinga kelgach, xalqaro rivojlanish tashkilotlari va mahalliy fuqarolik jamiyat guruhlari bilan hamkorlik orqali Filippinda ayollar uy ishlari migratsiyasini integratsiya qilishga jalb qilingan. Ushbu Konvensiya oxir-oqibat ratifikatsiya qilinib, 2012-yilda tegishli milliy qonun qabul qilingan.

Filippin davlatining yana bir ijobjiy tajribalaridan biri – mehnat muhojirlari huquqlarining himoya qilinishidir. Afsuski, xorijiy ish beruvchilar tomonidan, xususan, Fors ko‘rfazi mamlakatlari va qo‘sni Osiyo mamlakatlarida sodir etilgan shartnomaviy buzilishlar va boshqa huquqbuzarliklarning ko‘payishi ham qayd etilgan. Filippinlik mehnat muhojirlarining o‘sib borayotgan ulushi va xalqaro miqyosda ko‘rilgan adolatsizliklarga duch kelgan Filippin hukumati tomonidan 1995-yilda xorijdagi “Filippinliklar qonuni”ni qabul qilinib, ushbu qonunchilik Filippinning tashqi bandlik siyosatidagi innovatsion tashabbusi sifatida e’tirof etildi.

Ushbu qonunchilik ishchilarining eng kam ish haqi, qabul qilinayotgan migrantlarni mehnat sharoitlari yaxshilash hamda har qanday suiiste’mollikning oldini olish maqsadida asosiy huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi. Qonun ishga joylash bo‘yicha agentliklarni tartibga soladi va favqulodda vaziyatlarda konsullik va diplomatik yordam beradi. Kredit fondlarini o‘rnatadi, vataniga

<sup>5</sup> Ayollarni o‘rganish xalqaro jurnali matniga asosan Yaponiyada eng kam uy ishchisi bor. The Journal of International Women’s Studies Current Issue: Volume 26, Issue 3 (2024) Selected Papers from the 9th World Conference on Women’s Studie.

qaytarish yordami va oilani qo‘llab-quvvatlash kreditlari berilishini ta’minlaydi.


Filippin hukumati tomonidan 2006-yil dekabr oyida qabul qilingan qonunga ko‘ra, ishchilar uchun xorijda ishslash yoshi kamida 23 yosh va eng kam oylik ish haqi 400 dollarni belgilagan va bu orqali inson huquqlarini himoya qilinishni o‘z zimmasiga olgan. Odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida mamlakat Adliya vazirligi tomonidan maxsus guruh tuzilgan bo‘lib, doimiy ravishda uy xizmatchi migrantlari uchun monitoring olib boradi.

Shuningdek, Filippin hukumati o‘z fuqarolari, jumladan, “uy xizmati”dagi ishchi ayollar uchun ham bir qancha imtiyozlar bergan. Ushbu dastur 1995-yilda tuzilgan va ushbu imtiyozlar hozirgi kungacha kengayib, takomillashib bormoqda.

Filippin hukumati migratsiya siyosatini rivojlantirish yo‘lida 4 bosqichda ishlar amalga oshirmoqda, bular: mehnat va bandlik, ijtimoiy himoya, tashqi ishlar, ijtimoiy farovonlik. Har bir migrant mamlakat tomonidan ishchi kuchi manbayi va moddiy resurs sifatida yuqori baholanadi. Mehnat va bandlik departamenti tomonidan ishga yuborilishdan oldin fuqaroning ijtimoiy holati o‘rganiladi, mos ravishda ish topgandan so‘ng xorijdagi ishchi filippinliklar uyushmasiga a’zo qilinadi. Ishchining qabul qiluvchi davlatga yetib borish chiptasi qoplanadi, hayoti va sog‘lig‘i sug‘urta qilinadi va xorijda ishlab topgan maoshidan Filippin hukumatiga soliq to‘lanadi va shu asnoda pensiya daftarchasi yuritiladi.

Shuningdek, migrant xorijda konsullik tomonidan ro‘yxatga olinib, har qanday vaziyatda amaliy yordam beriladi. Misol uchun, filippinlik ayol uy xizmatiga kelib bir muddat ishladi, ishchi va xonardon egasi o‘rtasida shartnoma muddati tugadi yoki biror sabab tufayli ishni o‘zgartirmoqchi, deylik. Shunda fuqaro xorijdagi bandlik uyushmasiga murojaat qiladi va unga malakasiga mos ravishda ish topib beriladi, uyushma esa doimiy ravishda mahalliy firma va buyurtmachilar tomonidan bo‘sh ish o‘rnlari bazasini yangilab boradi.

Quyidagi chizmada “dunyoning migratsiya fabrikasi” deb nom olgan Filippin davlatida xorijda ishlaydigan migrantlar uchun hukumat tomonidan ishlab chiqilgan dastur tahlil qilingan.



Agar filippinlik fuqaro biror huquqbazarlikka  
duch kelsa, unga “xorijdagi fuqarolarga yordam”  
uyushmasi tomonidan huquqiy yordam beriladi.  
Baxtsiz hodisa yoki tasodif tufayli shikast yetsa  
yoxud tan jarohat olsa, migrantga moddiy yordam  
sifatida vataniga qaytish aviachiptasi olib beriladi.

Ijtimoiy himoyaning yana bir e'tiborga loyiq jihat shundaki, "xorijdagি migaratlar uchun uy-joy fondи" ochilgan bo'lib, unda xorijda mehnat qilayotgan migrantlarga (ayollarga chegirma bilan) uy-joy ipoteka tarzda 6 yilgacha to'lov asosida beriladi (home development mutual fund)<sup>6</sup>.

**Yakuniy qism.** Filippin ishchi kuchi bilan yetarlicha ta'minlangan mamlakat bo'lib, ishsizlik darajasi 4 foizga teng. Mazkur holat, birinchidan, mamlakatning migratsiya siyosati bo'lsa, ikkinchidan, ayollarni xorijda uy ishchilarini maqomida mehnat qilayotgani hisoblanadi.

Filippinda mehnat birjalari yuqori saviyada ishlaydi va har qanday yoshdagagi ayolni istagiga mos ravishda mehnat faoliyat turlarini taklif qila oladi. 1,6 mln nafar uy ishchi migrantiga ega Filippin davlatiga 2023-yilda 30,5 mlrd dollar miqdorda pul o'tkazmalari yuborilgan.

Ayollar migratsiyasining yagona platformasini ishlab chiqish. Mazkur platforma

orqali xorijga ishga taklif qilish, borayotgan mamlakat tilini chuqur o‘qitish, kasblar bo‘yicha malakasini oshirishga ko‘maklashish. Filippin tajribasidan kelib chiqib, ayol mehnat migranti daromadlari hisobidan pensiya jamg‘armasi tizimni joriy qilish.

1974-yilda Filippin hukumati ishlab chiqqan dasturga ko‘ra, mamlakat tashqi qarzini uzish uchun migratsiyadan oqilona foydalanilgan.

Hozirda O‘zbekistonning ham tashqi qarzini inobatga olib<sup>7</sup>, o‘z samarasini bergan Filippin tajribasini tatbiq etish dolzarbdir. Ya’ni xorijdagি elchixonalar bilan hamkorlikda 7/24 soat ishlaydigan internet platforma yaratib, xorijda mehnat qilayotgan ayollarni birlashtirish orqali zo‘ravonliklar, tazyiqlar, nomusga tegish kabi holatlarning oldini olish hamda huquqiy-psixologik ko‘mak xizmatini yo‘lga qo‘yish lozim.

Bundan tashqari, Filippin hukumati singari xorijda ishlayotganlar uchun maxsus qonun ishlab chiqish va unga ko‘ra xorijiy ish beruvchilar tomonidan shartnomaviy buzilishlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish eng oliv maqsaddir.

<sup>6</sup> Filippin davlatining migrantlar uchun ajratilgan ijtimoiy yordami <https://www.pagibigfund.gov.ph/> Availmentofnewloan.html#-1v

<sup>7</sup> O‘zbekistonning tashqi qarzi 37.9 mlrd bo‘lishi kutilmoqda. Uzbekistan’s public debt is projected to reach \$37.9bn by the end of 2024, an increase from the 2023 debt of \$34.9bn. (<https://darvo.uz/en/2024/06/03>)

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Les travailleuses migrantes privées de prestations sociales apprennent à épargner aux Philippines.(2019,6.03) ONUFemmes. <https://www.unwomen.org/fr/news/stories/2019/3/feature-story-migrant-workers-lacking-work-benefits-learn-how-to-save-in-the-philippines>
2. Rajiv biswase.economics commentary dec 22, 2023. Philippines economy shows robust growth into the new year web site. <https://www.spglobal.com/marketintelligence/en/mi/research-analysis>
3. Debonneville, J. (2019). Mobilités, altérités et imaginaires migratoires: regards croisés sur les migrations des travailleuses domestiques philippines. Civilisations, 68, 163182. <https://doi.org/10.4000/civilisations.5587>
4. Survey on Overseas Filipinos | Philippine Statistics Authority | Republic of the Philippines. (2023, 11 octobre). <https://psa.gov.ph/statistics/survey/labor-and-employment/survey-overseas-filipinos>
5. Ogaya, C. (2020). The rights movement for domestic workers in the Philippines. Revue internationale des études du développement, N°242(2), 169. <https://doi.org/10.3917/ried.242.0169>
6. Julia Wolfe, “[Domestic Workers Are at Risk During the Coronavirus Crisis](#),” *Working Economics Blog* (Economic Policy Institute), April 8, 2020.
7. UN High Commissioner for Refugees (UNHCR). 2022. UNHCR: Ukraine, Other Conflicts Push Forcibly Displaced Total Over 100 Million for First Time. UNHCR news article, May 23, 2022. [Available online](#).



**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

## **MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia*

**x a l q a r o i l m i y j u r n a l i**

*международный научный журнал  
international academic journal*

**2024/2 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.